

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**RENESSANS TA'LIM UNIVERSITETI**

**XOLMUROTOVA DIYORAXON IBRAGIMOVNA**

**MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH ASOSIDA  
INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH  
(SIRDARYO VILOYATI MISOLIDA)**

**08.00.11 – Marketing**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation the abstract of doctor of Philosophy (PhD)  
on economical sciences**

**Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna**

Marketing strategiyalaridan foydalanish asosida investitsion jozibadorlikni  
oshirish (Sirdaryo viloyati misolida)..... 3

**Холмуротова Диёрахон Ибрагимовна**

Повышение инвестиционной привлекательности на основе использования  
маркетинговых стратегий (на примере Сырдарьинской области)..... 29

**Kholmurotova Diyorakhon Ibragimovna**

Increasing investment attractiveness based on the use of marketing strategies  
(on the example of the Syrdarya region)..... 57

**E'lon qilingan ishlar ro'yuxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 62

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**RENESSANS TA'LIM UNIVERSITETI**

**XOLMUROTOVA DIYORAXON IBRAGIMOVNA**

**MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH ASOSIDA  
INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH  
(SIRDARYO VILOYATI MISOLIDA)**

**08.00.11 – Marketing**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Iqt3868 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lif portalı ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz))ga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Zufarova Nozima Gulamiddinovna,**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Kasimova Fatima Tulkunovna,**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Mamurov Samad Egamnazarovich,**  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.1.16.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 02 09 soat 14:00 da  
majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: tdiu@tdiu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin 18.04-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-28-72); faks: (99871) 239-43-51; e-mail: tdiu@tdiu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 20 08 kuni tarqatildi.  
(2025-yil 7 08 dagi 31-raqamli reyestr bayonnomasi)



G.K. Abduraxmanova,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, i.f.d., professor

O.Dj. Djuraboyev,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, i.f.d., professor

Sh.A. Allayarov,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,  
professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining chuqurlashib borishi mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning kuchayishi hamda xalqaro kapital oqimlarining faollashuviga olib kelmoqda. Xususan, “to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi COVID-19 pandemiyasidan keyin tiklana boshladi. BMTning savdo va rivojlanish bo‘yicha konferensiyasi (UNCTAD) ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda global to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 1,3 trillion AQSH dollarini tashkil etdi”<sup>1</sup>. Shu bilan birga, 2023-yildan boshlab jahon iqtisodiyoti bir qator muammolarga duch kelmoqda. Xususan, global inflyatsiya, energiya narxlarining o‘sishi, geosiyosiy ziddiyatlar va ta’midot zanjirlaridagi uzilishlar investitsion muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakat va hududlarning xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha raqobatbardoshligini oshirish zaruriyatini yanada dolzarb qilmoqda.

Jahonda global integratsiyaning kuchayishi sharoitida hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishda marketing strategiyalaridan samarali foydalanish muammolariga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Hududlar yoki mamlakatlarning investitsion iqtidorini baholash, sanoat va iqtisodiyot sohalari uchun maqsadli marketing strategiyalarini yaratish, milliy brend strategiyalarini takomillashtirish, sanoat klasterlari va maxsus iqtisodiy zonalarni rivojlantirish, hududiy va milliy darajada raqobat afzalliklarini baholash, bozorni segmentlash va maqsadli auditoriyaga yo‘naltirilgan strategiyalar ishlab chiqish, barqaror rivojlanish maqsadlarini qo‘llab-quvvatlaydigan investitsiya modellarini ilgari surish, investitsiya va marketing trendlarini uzoq muddatli prognoz qilish, investorlar uchun qulay axborot platformalarini yaratish bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilish jarayonida investitsiyalarni jalb etish masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizning investitsion jozibadorligini oshirish va samarali marketing strategiyalarini qo‘llash bir qator muhim omillar bilan chambarchas bog‘liq. Global investitsiya bozorida raqobatning kuchayib borayotgani O‘zbekistonni o‘zining investitsion imkoniyatlarini xalqaro miqyosda faol va samarali targ‘ib qilishga undamoqda. Hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish maqsadida har bir mintaqaning o‘ziga xos investitsion salohiyatini aniqlash va uni maqsadli ravishda targ‘ib qilish zarur. Raqamli texnologiyalar va internet-marketingning rivojlanishi investorlar bilan muloqot qilishning yangi, innovatsion imkoniyatlarini yaratmoqda. Mazkur yo‘nalishda belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish hududlarning investitsion jozibadorligini yaxshilash, raqobatbardosh ustunliklarini aniqlash va uni potensial investorlarga samarali targ‘ib qilish bo‘yicha marketing strategiyasini amalga oshirish usullarini ishlab chiqish, hududdagi investitsion muhitni iqtisodiy, ijtimoiy, infratuzilmaviy va boshqa ko‘rsatkichlarni hisobga olgan holda baholashning kompleks metodologiyasini ishlab chiqish, zamonaviy raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish

<sup>1</sup> UNCTAD. World Investment Report 2023. New York and Geneva: United Nations, 2023, p.1-8.

imkonini beruvchi internet-marketing asosida hudud investitsiya imkoniyatlarini kengaytirishning innovatsion usullarini taklif etish, mintaqaning investitsion imiji va brendini shakllantirish, investorlarning maqsadli segmentlarini aniqlash, investitsiya takliflarini ishlab chiqish va ilgari surish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan marketing strategiyasini ishlab chiqish va undan samarali foydalanishni taqozo etadi. Bu esa mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-iyuldagagi "Ma'muriy islohotlar doirasida investitsiyalar, sanoat va savdo sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-111сон, 2022-yil 7-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasining to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar jamg'armasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-215-son farmonlari, 2024-yil 27-avgustdagagi "O'zbekiston Respublikasi milliy investitsiya jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-303-son, 2022-yil 28-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2023-2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-459-son, 2022-yil 25-iyuldagagi "Investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarning loyiha oldi, davlat xaridiga doir tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari va texnik topshiriqlar hamda shartnomalarni ekspertizadan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-332-son, 2021-yil 30-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi PQ-72-son, 2021-yil 25-avgustdagagi "Investitsiya loyihalarini tashqi infratuzilma bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5233-son qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish tizimini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 16-son, 2022-yil 15-oktabrdagi "Respublika hududlarida innovatsiya va investitsiya faoliyatini jadallashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 606-son, 2022-yil 21-apreldagi "Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini shakllantirish va davlat investitsiyalarini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 206-son, 2021-yil 21-sentabrdagi "Yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun eng yaxshi taklifni tanlab olishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 592-son qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va erkinlashtirish- ning ilmiy asoslarini ishlab chiqish" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'r ganilganlik darjasи.** Investitsion jozibadorlikni oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanish masalasi F.Kotler, G.Armstrong, F.Sudirjo,

A.Risdwiyanto, John Doe, Emily Johnson, Michael Lee kabi ko‘plab xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan o‘rganilgan<sup>2</sup>.

Mustaqil davlatlar hamdo‘sligi mamlakatlari olimlaridan Lazareva L.V., Xuxlayev D.G., Demchenko S.P., Kondrashova O.V., Kublin I.M., Palkin A.V., Bespyatix V.I., Shepakin M.B. kabilar o‘z tadqiqotlarida mazkur masalani atroflicha yoritgan<sup>3</sup>.

O‘zbekistonlik olimlardan S.S. G‘ulomov, B.Yu. Xodiyev, Sh.J. Ergashxodjayeva, M.M. Urazov, R.I. Xusainova, D.Toirov, X.Xujayev, G.Umirova, Sh.Akromov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida investitsion muhit va marketing masalalari tadqiq etilgan<sup>4</sup>.

Biroq hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanish masalalari yetarlicha o‘rganilmagan. Xususan, Sirdaryo viloyatining investitsion salohiyatini marketing yondashuvi asosida baholash usullari ishlab chiqilmagan; hududning investitsion jozibadorligini oshirishda internet-marketingdan foydalanish istiqbollari aniqlanmagan; Sirdaryo viloyatining investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan kompleks marketing strategiyasi ishlab chiqilmagan. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ushbu dissertatsiya ishida Sirdaryo viloyati misolida hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirish yo‘llari ko‘rsatib beriladi.

---

<sup>2</sup> Kotler, P., Kartajaya, H., Den Huan, H., & Mussry, J. (2023). Entrepreneurial marketing: Beyond professionalism to creativity, leadership, and sustainability. John Wiley & Sons.; Armstrong, G. (2010). Principles of marketing. Pearson education; Sudirjo, F. (2023). Marketing Strategy in Improving Product Competitiveness in the Global Market. Journal of Contemporary Administration and Management (ADMAN), 1 (2); Risdwiyanto, A., Sulaeman, M. M., & Rachman, A. (2023). Sustainable Digital Marketing Strategy for Long-Term Growth of SMEs. Journal of Contemporary Administration and Management (ADMAN), 1(3), 180-186; John Doe, “Regional Investment Promotion Strategies: A Comparative Study”, International Journal of Marketing Strategies, 2023-yil, 15-jild, 4-son; Emily Johnson, “Enhancing Investment Attractiveness through Digital Marketing: Case Studies from Eastern Europe”, European Journal of Business and Economics, 2022-yil, 10-jild, 2-son; Michael Lee, “The Role of Branding in Regional Investment Appeal: Insights from Southeast Asia”, Asian Business Review, 2021-yil, 8-jild, 3-son.

<sup>3</sup> Лазарева, Л.В. (2023). Маркетинг; Хухлаев, Д.Г. (2023). Механизм формирования и реализации стратегии маркетинга опережающего развития. Инновации и инвестиции, (4), 164–170; Демченко, С.П. (2023). Разработка маркетинговой стратегии предприятия (Doctoral dissertation, Сибирский федеральный университет); Кондрашова, О.В., Кублин, И.М., Воронов, А.А., & Орлов, П.В. (2023). Трансформация маркетинга в цифровой среде. Практический маркетинг, (8), 22–27; Палкин, А.В., Беспятых, В.И., Созинова, А.А., & Метелева, О.А. (2023). Адаптация маркетинговой деятельности предприятий в условиях структурной модернизации экономики. Экономика, предпринимательство и право, (3), 649–660; Щепакин, М.Б. (2023). Управление конкурентоустойчивостью бизнеса посредством инновационных преобразований в условиях мобилизационной экономики. Экономика, предпринимательство и право, 13(3), 601–628.

<sup>4</sup> Гулямов, С.С., Шермухamedov, А.Т., & Холбоев, Б.М. (2022). Искусственный интеллект и когнитивные технологии в экономике; Ходиев, Б.Ю. (2017). Узбекистан: построение “цифровой экономики”. Российский внешнеэкономический вестник, (12), 3-12; Ergashhodjaeva, S. J. (2018). Genesis of the concept of the essence of innovative marketing. Theoretical & Applied Science, (3), 113-119; Уразов, М. М. (2022). Стратегический маркетинг на промышленных предприятиях в условиях конкурентной среды; Хусainova, Р.И., & Минина, Т.Б. (2021). Маркетинг в условиях цифровой трансформации экономики. Slavonic University of the Republic of Moldova (Chișinău, Moldova) University of Wasit (Al Kut, Wasit, Republic of Iraq) Ташкентского финансового института (Ташкент, Республика Узбекистан) Евразийского национального университета имени ЛН Гумилева (Астана, Республика Казахстан), 249; D.Toirov. “Hududlarda investitsion muhitni takomillashtirishda marketing strategiyasining o‘rnı”. <https://conference.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1458>; X.Xujayev. “O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish”. International Journal of Finance and Digitalization, 2024-yil, 3-jild, 5-son; G.Umirova. “Marketing strategiyalarini hududlar iqtisodiy rivojlanishiga tatbiq etish masalalari”. <https://economy.edu.uz/index.php/journal/article/view/376>; Sh.Akromov. “Investitsion jozibadorlikni oshirishda internet-marketingning ahamiyati”. <https://tdiu.uz/research/2023-marketing-strategiya/akromovsh.pdf>.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliv ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining P3-2020110229 – “Investorlar uchun “E-Investment” smart mobil ilovasini ishlab chiqish” amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** marketing strategiyalaridan foydalanish asosida Sirdaryo viloyatining investitsion jozibadorligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

investitsion jozibadorlikni oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanishning nazariy va uslubiy asoslarini o‘rganish;

investitsiya tushunchasining qo‘llanish sohasi va nazariy-uslubiy asoslarini ko‘rib chiqish;

hududlarga investitsiyalarni jalb etishda marketing strategiyalarining tutgan o‘rni va funksional ahamiyatini aniqlash;

investitsiyalarni jalb etishda xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish hamda ularning O‘zbekistonidagi tatbiqiylarini baholash;

Sirdaryo viloyatining investitsion muhitini rivojlantirishda mavjud holatni tahlil qilish va tendensiyalarini aniqlash;

Sirdaryo viloyatining investitsion salohiyatini marketing yondashuvlari asosida baholash usullarini tadqiq etish;

marketing yondashuvi asosida hududiy investitsion salohiyatni baholash metodikasini takomillashtirish;

internet-marketing vositalaridan foydalangan holda, Sirdaryo viloyatining investitsion jozibadorligini oshirish yo‘llarini aniqlash;

hududning investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan kompleks marketing strategiyasini ishlab chiqish va ularning samaradorlik ko‘rsatkichlarini asoslash.

**Tadqiqotning obyekti** marketing strategiyalaridan foydalanish asosida Sirdaryo viloyatining investitsion jozibadorligini oshirish hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmetini** marketing strategiyalari asosida hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish jarayonlarida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada guruhlash, marketing tahlili, taqqoslash, matematik modellashtirish, segmentlash, proqnozlashtirish va ekspert baholash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra, “investitsion jozibadorlikni oshirish bo‘yicha marketing strategiyasi” tushunchasining iqtisodiy mazmuni mamlakat, uning muayyan hududi yoki korxonaga investitsiyalarni jalb qilish maqsadida bozorda o‘z pozitsiyalarini mustahkamlash hamda ularning qiymatini oshirishga qaratilgan reja va tadbirlar majmuasini amalga oshirishda mintaqaning raqobatbardosh ustunliklarini aniqlash, uni potensial investorlarga samarali targ‘ib qilish usullarini joriy etish nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

hududning infratuzilmaviy investitsion jozibadorligi darajasini aniqlashda investitsion muhitning iqtisodiy ( $IM_{iqt}$ ), ijtimoiy ( $IM_{ijt}$ ), infratuzilmaviy ( $IM_{inf}$ ) va boshqa ko‘rsatkichlari ( $IM_{bosh}$ ) hisobga olinib, baholashning kompleks metodologiyasi

mazkur omillar ta'siriga ko'ra, ular o'rtasidagi o'zaro nisbat ( $IM_{iqt}=0,31$ ;  $IM_{ij}=0,27$ ;  $IM_{inf}=0,23$ ;  $IM_{bosh}=0,19$ )ning maqbul tarkibini belgilash orqali takomillashtirilgan;

Sirdaryo viloyatida investitsiya imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha ishlab chiqilgan marketing strategiyasiga ko'ra, afzal ko'rish balli (AKB), samaradorlik reytingi (SR), hududlar strategiyasini qabul qilish (HSQ) jihatdan "raqamli marketing" (85; 4,5; 90), "brendlash" (78; 4,2; 80), "manfaatdor tomonlarning ishtiroti" (75; 4,0; 70), "an'anaviy ommaviy axborot vositalari" (60; 3,5; 50) qiymatlariga muvofiq keluvchi investorlarning afzalliklari asoslangan;

Sirdaryo viloyatining investitsion jozibadorligini oshirishning asosiy omillari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalovchi ekonometrik model asosida jalb etilayotgan investitsiya hajmining 2027-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

hududlarning investitsion jozibadorligini baholashning iqtisodiy, ijtimoiy, innovatsion va boshqa omillarini o'z ichiga oluvchi marketing yondashuviga asoslangan kompleks metodologiyasi ishlab chiqilgan;

marketing faoliyatining investitsion oqimlarga ta'sirini miqdoriy jihatdan baholash imkonini beruvchi hududiy investitsion marketing samaradorligini baholash mezonlari tizimi yaratilgan;

raqamli texnologiyalarning hududiy marketingdagi o'rni va ahamiyati asoslanib, hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishda internet-marketingdan foydalanishning nazariy-uslubiy asoslari ishlab chiqilgan;

hududiy investitsion marketing strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Sirdaryo viloyati rahbariyati tomonidan qarorlar qabul qilishda foydalanilishi mumkin bo'lган viloyatning investitsion salohiyati va jozibadorligi baholangan;

xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilishni sezilarli darajada oshirish imkonini beruvchi Sirdaryo viloyati uchun investitsion marketing strategiyasi ishlab chiqilgan;

hududiy hokimiyat organlari uchun investorlar bilan samarali muloqot o'rnatish va rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilib, ular Sirdaryo viloyatining 2024–2027-yillarga mo'ljallangan investitsion strategiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** bevosita xorijiy investitsiyalarni jalb etishning nazariy va amaliy muammolarini o'rganish, sohaga oid xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini tadqiq etish, ekspert baholash natijalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Sirdaryo viloyati statistik ma'lumotlari hamda viloyat tumanlarida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy hisobotlariga asoslangani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalariga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish hajmi hamda sifatini oshirishning fundamental va amaliy

jihatlarini chuqur tadqiq etishga qaratilgan maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarida manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati dissertatsiya natijalari, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan hududlarga, ayniqsa, sanoat obyektlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalg etish ko‘lamini oshirish bo‘yicha maqsadli chora-tadbirlar ishlab chiqish, dissertatsiya materiallaridan oliy o‘quv yurtlarida “Xorijiy investitsiyalar”, “Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish”, “Strategik marketing” fanlarining o‘quv dasturlarini takomillashtirish va o‘qitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Marketing strategiyalaridan foydalanish asosida investitsion jozibadorlikni oshirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra, “investitsion jozibadorlikni oshirishda marketing strategiyasi” tushunchasining iqtisodiy mazmunini mamlakat, uning muayyan hududi yoki korxonaga investitsiyalarni jalg etish maqsadida bozorda o‘z pozitsiyalarini mustahkamlash va ularning qiymatini oshirishga qaratilgan reja va tadbirlar majmuasini amalga oshirishda mintaqaning raqobatbardosh ustunliklarini aniqlash hamda uni potensial investorlarga samarali targ‘ib qilish usullarini joriy etish nuqtayi nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o‘quv yurti talabalari uchun tavsiya etilgan “Brand management” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2024-yil 25-apreldagi 111-13-son buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyatga joriy etilishi natijasida talabalarning mintaqa raqobatbardoshlik ustunliklarini aniqlash va uni potensial investorlarga samarali targ‘ib qilish usullarini joriy etish nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan “Marketing strategiyasi asosida investitsion jozibadorlikni oshirish” tushunchasi bo‘yicha nazariy bilimlarini kengaytirish imkonini yaratilgan;

hududning infratuzilmaviy investitsion jozibadorligi darajasini aniqlashda investitsion muhitning iqtisodiy ( $IM_{iqt}$ ), ijtimoiy ( $IM_{ijt}$ ), infratuzilma ( $IM_{inf}$ ) va boshqa ko‘rsatkichlari ( $IM_{bosh}$ ) hisobga olinib, baholashning kompleks metodologiyasi mazkur omillar ta’siriga ko‘ra, ular o‘rtasidagi o‘zaro nisbat ( $IM_{iqt}=0,31$ ;  $IM_{ijt}=0,27$ ;  $IM_{inf}=0,23$ ;  $IM_{bosh}=0,19$ )ning maqbul tarkibini belgilash taklifi O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan amaliyatda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 24-dekabrdagi 03-82-01560-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu ilmiy taklifning amaliyatga joriy etilishi natijasida Sirdaryo viloyatining investitsion salohiyatini baholash uslubiyoti asosida hududning investitsion jozibadorligi darajasini aniqlash imkonini yaratilgan;

Sirdaryo viloyatida investitsiya imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha marketing strategiyasiga ko‘ra, afzal ko‘rish balli (AKB), samaradorlik reytingi (SR), hududlar strategiyasini qabul qilish (HSQ) jihatdan “raqamli marketing” (85; 4,5; 90), “brendlash” (78; 4,2; 80), “manfaatdor tomonlarning ishtiroki” (75; 4,0; 70), “an’anaviy ommaviy axborot vositalari” (60; 3,5; 50) qiymatlariga muvofiq keluvchi investorlarning afzalliklaridan foydalanish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan amaliyatda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024-yil 24-

dekabrdagi 03-82-01560-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Sirdaryo viloyatida investitsiya imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha marketing strategiyasiga ko'ra afzal ko'rish balli, samaradorlik reytingi, hududlar strategiyasini qabul qilish jihatdan investorlarning afzalliklariga ko'ra hudud investitsion jozibadorligini oshirish imkonni yaratilgan;

Sirdaryo viloyatining investitsion jozibadorligini oshirishning asosiy omillari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalovchi ekonometrik model asosida jalb etilayotgan investitsiya hajmining 2027-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan amaliyotda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024-yil 24-dekabrdagi 03-82-01560-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Sirdaryo viloyatining investitsion jozibadorligini oshirishning istiqbol ko'rsatkichlarini aniqlash hamda ularning hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy parametrlari bilan muvofiqligini ta'minlash imkonni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 3 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma'ruza shaklida bayon etilgan hamda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarini asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsija qilingan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola, nufuzli xorijiy jurnalda 1 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

**Dissertatsyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 146 betdan iborat.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbliji va ahamiyati asoslangan; tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan; respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan; ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natjalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan; tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Birinchi bobda "**Investitsion jozibadorlikni oshirishda marketing strategiyasidan foydalanishning nazariy va uslubiy asoslari**" o'rganilgan. Unda marketing strategiyasi tushunchasi va uning nazariy asoslari, investitsiya tushunchasi va uning nazariy-uslubiy jihatlari hamda hududlarga investitsiyalarni jalb etishda marketing strategiyasidan foydalanishning ahamiyati yoritib berilgan.

Marketing strategiyasi korxona yoki hududning uzoq muddatli maqsadlariga erishish uchun bozor imkoniyatlarini baholash va resurslarni samarali taqsimlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimidir. Hududlarni rivojlantirishda marketing strategiyasi ularning raqobat ustunliklarini aniqlash, mavjud salohiyatni targ'ib qilish va investorlar uchun qulay muhit yaratishni nazarda tutadi.

Investitsiya kapital qo‘yilmalarning barcha turlari bo‘lib, ular iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida amalga oshiriladi. Investitsiyalarning asosiy maqsadi foyda olish va ijobjiy ijtimoiy ta’sirga erishishdir. Hududlarga investitsiyalarni jalb etishda marketing strategiyasi muhim rol o‘ynaydi. U hududning investitsion jozibadorligini oshirish, investorlarga zarur axborotlar yetkazish va ularning ehtiyojlarini qondirishga qaratiladi.

Tadqiqotda marketing strategiyasi tushunchasining iqtisodiy mazmuni tahlil qilinib, uni “mamlakat, uning muayyan hududi yoki korxonaga investitsiyalarni jalb qilish maqsadida bozorda o‘z pozitsiyalarini mustahkamlash hamda ularning qiymatini oshirishga qaratilgan reja va tadbirlar majmuasi” sifatida talqin etish taklif etilgan. Marketing strategiyasining asosiy elementlari sifatida bozorni segmentlash, maqsadli bozorni tanlash va pozitsiyalash jarayonlari o‘rganilgan.


Har yili davlat tomonidan “Investitsiya dasturi” ishlab chiqiladi. Bu dastur orqali iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga e’tibor qaratiladi va rivojlanish yo‘nalishlari belgilanadi. Shu bilan birga, xususiy sektor investitsiyalari ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususiy investorlarning mablag‘ manbalari va ularni jalb qilish imkoniyatlarini o‘rganish lozim. Investitsiya resurslarining taqchilligi sharoitida ustuvor yo‘nalishga ega loyihibar qishloq xo‘jaligi, sanoat, fan, sog‘liqni saqlash, madaniyat va ta’lim kabi sohalarda amalga oshirilishi lozim. Investitsiya loyihibarining turli tarmoqlarda olib borilishi muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston iqtisodiyotining taraqqiyotini ta’minlashda investitsiyalarning roli katta. Ular iqtisodiyotni intensiv rivojlantirish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish imkonini beradi.

Marketing strategiyasi esa investitsion jozibadorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Marketing strategiyasi korxona yoki hududning uzoq muddatli maqsadlariga erishish uchun bozorni o‘rganish, mahsulot ishlab chiqarish, narx belgilash, sotish va reklama qilish bo‘yicha ishlab chiqilgan yondashuvlar majmuidir. Mazkur strategiyani ishlab chiqishda hududning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish lozim. Har bir hudud o‘zining noyob resurslari, geografik joylashuvi, infratuzilmasi va boshqa xususiyatlarga ega. Shu sababli marketing strategiyasi aynan shu hududga moslashtirilgan bo‘lishi kerak.

Sirdaryo viloyatining investitsion jozibadorligini oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanishning nazariy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv viloyatning iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Muallif tomonidan Sirdaryo viloyatining investitsion jozibadorligini oshirishga kompleks va innovatsion yondashuv taklif etilgan hamda nazariy asoslar, amaliy usullar va zamonaviy texnologik yechimlar uyg‘unlashtirilgan. Bu yondashuv viloyatning raqobatdoshlik ustunliklarini aniq belgilash, ularni potensial investorlarga samarali yetkazish va pirovardida viloyatga investitsiyalar oqimini ko‘paytirish imkonini beradi (1-rasm).

**SIRDARYO VILOYATINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH UCHUN  
ISHLAB CHIQILGAN MARKETING STRATEGIYASI TASNIFI**



**1-rasm. Sirdaryo viloyatining investitsion jozibadorligini oshirish uchun ishlab chiqilgan marketing strategiyasi tasnifi<sup>5</sup>**

<sup>5</sup> Muallif ishlanmasi.

Marketing strategiyasini qo'llash nafaqat Sirdaryo viloyati, balki O'zbekistonning boshqa hududlari uchun ham foydali bo'lishi mumkin. U hududiy rivojlanishning zamonaviy tendensiyalarini aks ettiradi va global raqobat sharoitida hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish, investitsion jozibadorligini kuchaytirish hamda barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

### **1-jadval**

#### **“Marketing strategiyasi asosida investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish” bo'yicha berilgan ta'riflar<sup>6</sup>**

<b>Nº</b>	<b>Olimlar</b>	<b>Ta'rif keltirilgan yil</b>	<b>Ta'rif mazmuni</b>
1.	Prodanova N., Plaskova N., Khamkhoeva F.A., Sotnikova L.V., Prokofieva E.V.	2021	Korxona investitsiyaviy jozibadorligini baholashda marketing vositalarining ahamiyati ortib bormoqda. Ayniqsa, raqamli vositalar orqali investorlarga yetkaziladigan axborotlar ishonchli va tahliliy bo'lishi kerak <sup>7</sup>
2.	Bektemirov A.B., Ruzibayeva N.X., Azimova R.I.	2022	Marketing strategiyalari investitsiyaviy qarorlarni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ular orqali investitsion muhitni tahlil qilish, segmentatsiya va pozitsiyalash imkoniyatlari yuzaga chiqadi <sup>8</sup>
3.	Bohdan Danylyshyn, Olena Bondarenko, Maryna Gudz, Olena Ptashchenko, Anastasiia Mohylova, And Larysa Radkevych	2023	Hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishda marketing vositalari strategik resurs sifatida qaraladi. Bu vositalar yordamida hududning imiji, raqobatbardoshligi va investitsion taklifi yaxshilanadi <sup>9</sup>
4.	Xolmurotova D. <sup>10</sup>	2025	Uning ma'lum bir mintaqasi yoki korxonalarining bozor pozitsiyasini mustahkamlash va ularning investitsiyalarni jalb qilishdagi qiymatini oshirishga qaratilgan iqtisodiy mohiyatni anglatadi. Bu mintaqaning raqobatbardosh ustunliklarini aniqlash hamda ularni potensial investorlarga samarali targ'ib qilishga yo'naltirilgan reja va choralar majmuasini amalga oshirishni o'z ichiga oladi

<sup>6</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>7</sup> Prodanova, N., Plaskova, N., Khamkhoeva, F., Sotnikova, L., Prokofieva, E. / Modern tools for assessing the investment attractiveness of a commercial organization, Vol. 8 Núm. 24: 145 - 151/ diciembre 2019

<sup>8</sup> A.B. Bektemirov, N.X. Ruzibayeva, R.I. Azimova. Investitsiya va innovatsiyalar. O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2020. – 432-b.

<sup>9</sup> Bohdan Danylyshyn, Olena Bondarenko, Maryna Gudz, Olena Ptashchenko, Anastasiia Mohylova and Larysa Radkevych. Marketing Tools to Increase Regional Investment Attractiveness Review of Economics and Finance, 2023, 21, 1101-1108.

<sup>10</sup> Xolmurotova D.I. Raqamli marketing va barqaror strategiyalar orqali mintaqaviy investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish: ahp asosidagi tahlil. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2024-yil, noyabr, 11-soni.

Investitsion jozibadorlikni oshirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu mexanizm orqali davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik kuchaytiriladi, investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi.

Hududiy iqtisodiyot ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Kam rivojlangan hududlarda iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish uchun hududiy iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash maqsadida samarali marketing strategiyalaridan foydalanish dolzarbdir. Ushbu tadqiqot hududiy raqobatdoshlik ustunliklari va tanlangan investitsion jozibadorlik indekslari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, hududiy iqtisodiyotning qaror qabul qilish jarayonlariga qimmatli tahlillar taqdim etadi.

Metodologik yondashuvga ko‘ra, “marketing strategiyasi asosida investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish” tushunchasi mamlakat, uning ma’lum bir mintaqasi yoki korxonalarining bozor pozitsiyasini mustahkamlash va ularning investitsiyalarini jalb qilishdagi qiymatini oshirishga qaratilgan iqtisodiy mohiyatni anglatadi. Bu mintaqaning raqobatbardosh ustunliklarini aniqlash hamda ularni potensial investorlarga samarali targ‘ib qilishga yo‘naltirilgan reja va choralar majmuasini amalga oshirishni o‘z ichiga oladi. 1-jadvalda “marketing strategiyasi asosida investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish” tushunchasi bo‘yicha berilgan ta’riflar muallif tomonidan ko‘rib chiqilgan.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi marketing strategiyalarini amalga oshirishda yangi imkoniyatlar ochmoqda. Internet-marketing, ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar orqali investorlarga ma’lumot yetkazish va ular bilan aloqa o‘rnatish imkoniyatlari kengaymoqda. Investitsion jozibadorlikni oshirishda marketing strategiyasi muhim rol o‘ynaydi. Bu marketing strategiyasi orqali hududning imkoniyatlari va afzalliklari to‘g‘ri taqdim etiladi, potensial investorlar e’tibori jalb qilinadi va uzoq muddatli hamkorlik aloqalari o‘rnataladi. Marketing strategiyasini to‘g‘ri ishlab chiqish va samarali amalga oshirish orqali hududning iqtisodiy rivojlanishiga erishiladi.

Ushbu ilmiy ishda Sirdaryo viloyatining investitsion salohiyatini baholash usullari, internet-marketingdan foydalanish istiqbollari hamda viloyatning investitsion jozibadorligini oshirishda marketing strategiyasidan foydalanish masalalari tadqiq etilgan. Hozirgi sharoitda internet-marketing hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishning samarali vositasiga aylanmoqda (2-jadval). Shunday qilib, internet-marketing Sirdaryo viloyatining investitsion jozibadorligini sezilarli darajada oshirish, keng xalqaro auditoriyaga chiqish va investorlar bilan samarali muloqot o‘rnatish imkonini beradi. Bu esa viloyatga yangi investitsiyalar jalb qilish va iqtisodiy rivojlanishni ta’minlaydi.

## 2-jadval

### Sirdaryo viloyati uchun raqamli marketing strategiyalari<sup>11</sup>

1.	<b>Viloyatning rasmiy veb-sayti</b>	Investorlar uchun alohida bo‘lim yaratish hamda unga investitsiya imkoniyatlari, loyihamar, qonunchilik, statistika, interaktiv xaritalar va boshqa foydali ma’lumotlarni joylashtirish lozim. Saytni ko‘p tilli qilish, tez-tez yangilab turish, foydalanuvchilar uchun qulay interfeys yaratish muhim
2.	<b>Ijtimoiy tarmoqlar</b>	Facebook, Instagram, LinkedIn kabi ijtimoiy tarmoqlarda viloyatning rasmiy sahifalarini yuritish, ular orqali viloyat haqida ijobiy ma’lumotlar tarqatish va ulardan investorlar bilan muloqot qilish uchun foydalanish zarur
3.	<b>Onlayn-reklama</b>	Google Ads, Yandex, Direct kabi xizmatlar orqali maqsadli auditoriyaga yo‘naltirilgan kontekstli va banner reklamalarini joylashtirish lozim
4.	<b>SEO-optimizatsiya</b>	Viloyat veb-saytingning qidiruv tizimlardagi pozitsiyalarini yaxshilash, kalit so‘zlar bo‘yicha birinchi o‘rnлага chiqishini ta’milash kerak
5.	<b>Elektron pochta marketingi</b>	Potensial investorlar bazasini shakllantirish va ularga muntazam ravishda viloyat haqidagi yangiliklar, takliflar yuborib turish lozim
6.	<b>Onlayn-tadbirlar</b>	Vebinlar, onlayn-forumlar, virtual ko‘rgazmalar orqali viloyatning investitsion imkoniyatlarini taqdim etish mumkin
7.	<b>Video-kontent</b>	YouTube va boshqa platformalarga viloyat haqidagi videoroliklar, intervyyular va taqdimotlarni joylashtirish kerak
8.	<b>Mobil ilovalar</b>	Investorlar uchun maxsus mobil ilova yaratish zarur hamda unda barcha zarur ma’lumotlar va xizmatlar taqdim etish mumkin
9.	<b>Infografika</b>	Viloyat haqidagi statistik ma’lumotlar va boshqa axborotlarni vizual shaklda taqdim etish lozim
10.	<b>Virtual turlar</b>	3D-texnologiyalar yordamida viloyatning sanoat zonalari, infratuzilmasi va boshqa obyektlarini onlayn namoyish qilish mumkin
11.	<b>Blogging</b>	Viloyat rahbarlari va mutaxassislarining bloglarini yuritish hamda ularda investitsion muhit haqida ma’lumotlar berib borish lozim
12.	<b>Onlayn-reytinglar</b>	Viloyatning turli xalqaro va mahalliy investitsion reytinglardagi o‘rnini keng yoritib borish kerak
13.	<b>Targetlangan reklama</b>	Ijtimoiy tarmoqlar va boshqa platformalarga aniq maqsadli auditoriyaga (masalan, ma’lum sohada faoliyat yurituvchi xorijiy kompaniyalarga) yo‘naltirilgan reklamalar joylashtirish zarur
14.	<b>Chatbotlar</b>	Viloyat veb-saytida sun’iy intellektga asoslangan virtual yordamchi yaratish va u orqali investorlarga tezkor ma’lumot berish kerak
15.	<b>Onlayn hujjat aylanishi</b>	Investorlarga barcha hujjatlarni onlayn topshirish va rasmiylashtirish imkoniyatini yaratish darkor

Dissertatsianing ikkinchi bobiga “**Hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanish holati tahlili**” deb nomlanib, unda investitsiyalarni jalb qilishda marketing yondashuvidan foydalanishning xorijiy tajribasi, Sirdaryo viloyati investitsion muhitining zamnaviy rivojlanish tendensiyalari hamda viloyatning investitsion muhitini rivojlantirishda marketing strategiyasidan foydalanish samaradorligi tahlil qilingan.

<sup>11</sup> Muallif ishlanmasi.

Xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishda marketing strategiyalaridan samarali foydalanmoqda. Masalan, Singapur o'zining iqtisodiy zonalari va innovatsion markazlarini targ'ib qilishda faol marketing siyosatini olib bormoqda. Irlandiya esa soliq imtiyozlari va yuqori malakali ishchi kuchini ta'kidlagan holda, xorijiy investorlarni jalg etmoqda.

Jahon tajribasida hududlarga investitsiyalarni jalg qilishda marketing yondashuvidan keng foydalanilmoqda. Bu borada rivojlangan mamlakatlar tajribasi alohida e'tiborga loyiq. AQSH, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Yaponiya kabi rivojlangan davlatlar o'z hududlariga investitsiyalarni jalg qilishda marketing strategiyalaridan samarali foydalanmoqda. Ular hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish maqsadida quyidagi marketing vositalarini faol qo'llamoqda: hududlarning investitsion imkoniyatlari va afzalliklarini keng targ'ib qilish; investorlarga qulay shart-sharoit va imtiyozlar taqdim etish; hududlar brendini shakllantirish va ilgari surish; investitsion forumlar, ko'rgazmalar va taqdimotlar tashkil etish; internet-marketingdan keng foydalanish; investorlar bilan doimiy aloqalarni yo'lga qo'yish. Masalan, AQSHning Nyu-York shtati o'z hududiga investitsiyalarni jalg qilish uchun "I love New York" brendini yaratgan va uni samarali targ'ib qilmoqda. Germaniyaning Bavariya federal yeri esa "Invest in Bavaria" dasturi doirasida chet el investorlari uchun maxsus xizmatlar ko'rsatmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlar ham investitsiyalarni jalg qilishda marketing yondashuvidan tobora ko'proq foydalanmoqda. Xitoy, Hindiston, Braziliya kabi yirik iqtisodiyotga ega davlatlar o'z hududlariga investitsiyalarni jalg qilish uchun faol marketing strategiyalarini qo'llamoqda. Masalan, Xitoy hukumati chet el investitsiyalarini jalg qilish uchun "Go West" dasturini ishlab chiqqan bo'lib, uning doirasida mamlakatning g'arbiy hududlarida investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Hindiston esa "Make in India" dasturi orqali xorijiy investorlarni jalg qilmoqda.

O'zbekiston ham so'nggi yillarda investitsiyalarni jalg qilishda marketing yondashuvidan faol foydalanmoqda. Xususan, "Invest in Uzbekistan" brendi ostida investitsion imkoniyatlari keng targ'ib qilinmoqda, investitsion forumlar o'tkazilmoqda, chet el investorlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Xorijiy tajribalarni o'rghanish va ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirish O'zbekiston hududlariga, jumladan, Sirdaryo viloyatiga investitsiyalarni jalg qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada quyidagi yo'nalishlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq: viloyatning investitsion imkoniyatlarini keng targ'ib qilish; viloyat brendini shakllantirish va ilgari surish; internet-marketingdan keng foydalanish; xorijiy investorlar uchun "yagona darcha" tizimini joriy etish; investorlar bilan doimiy muloqotni yo'lga qo'yish va boshqalar.

Mazkur muammolarni bartaraf etish viloyatning investitsion jozibadorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Sirdaryo viloyatida investitsion muhitni yaxshilash va xorijiy investitsiyalarni jalg qilish bo'yicha qator marketing strategiyalari qo'llanmoqda. Ushbu strategiyalarning samaradorligini baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda Sirdaryo viloyatida yangi tashkil etilayotgan korxonalar soni izchil ortib bormoqda. Xususan, 2020-yilda 500 ta, 2021-yilda 600 ta, 2022-yilda 700 ta yangi korxona tashkil etilgan bo‘lsa, 2024-yil yakunida bu ko‘rsatkich 900 taga yetgan. 2025-yil yakuniga kelib esa viloyatda tashkil etilgan yangi korxonalar soni 1050 taga yetishi kutilmoqda. Bu esa hududda investitsion muhit tobora yaxshilanib borayotgani, tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratilayotganini ko‘rsatadi<sup>12</sup>.

Yangi investitsion loyihalar hisobiga yaratilgan ish o‘rinlari soni ham ijobjiy dinamikaga ega. Jumladan, 2020-yilda 5000 ta, 2021-yilda 6000 ta, 2022-yilda 7000 ta yangi ish o‘rni yaratilgan. 2024-yil oxiriga kelib bu ko‘rsatkich 9000 taga yetgan bo‘lsa, 2025-yil yakuni bo‘yicha yangi ish o‘rinlari soni 10 500 taga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu esa viloyatda amalga oshirilayotgan investitsion loyihalarning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy samaradorligini ham namoyon etadi<sup>13</sup>.

Yuqoridagi tahlillar asosida Sirdaryo viloyatida qo‘llanayotgan marketing strategiyalari ma’lum darajada samarali ekanligini ta’kidlash mumkin. Biroq hali ham yechimini kutayotgan ayrim muammolar mavjud, viloyat haqidagi axborotlar yetarli darajada emas, internet-marketingdan samarali foydalanilmayapti, viloyat brendi to‘liq shakllantirilmagan va investorlar bilan aloqalar tizimli yo‘lga qo‘yilmagan. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi takliflarni berish mumkin:

viloyatning investitsion imkoniyatlari to‘g‘risida keng qamrovli axborot-tahliliy materiallar tayyorlash va ularni turli tillarda nashr etish;

viloyatning rasmiy veb-saytini takomillashtirish, ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lish, internet-reklama imkoniyatlaridan keng foydalanish;

viloyatning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi brend va sloganlar ishlab chiqish hamda ularni keng targ‘ib qilish;

investorlar bilan muntazam muloqot qilish, ularning muammolarini o‘z vaqtida hal qilish va takliflarini inobatga olish tizimini yo‘lga qo‘yish.

Sirdaryo viloyatida investitsiyalar hajmi 2017-yildan 2023-yilgacha sezilarli darajada o‘sgan. 2017-yilda viloyat bo‘yicha jami investitsiyalar hajmi 1 628 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib bu ko‘rsatkich 15 871,8 mlrd so‘mga yetgan. Bu 7 yil ichida taxminan 10 barobar o‘sishni anglatadi. Bu o‘sish viloyatning investitsion jozibadorligi oshib borayotganidan dalolat beradi (3-jadval).

Hududlar bo‘yicha tahlil qilinsa, viloyat ichida investitsiyalar notekis taqsimlangan. Ba’zi hududlarda boshqalariga nisbatan ko‘proq investitsiya jalb qilingan: shaharlar orasida Guliston shahriga doimiy ravishda yuqori investitsiya jalb qilingan bo‘lsa, tumanlar orasida Boyovut tumani, ayniqsa, 2021-yildan boshlab eng ko‘p investitsiya jalb qilingan hudud bo‘lib kelmoqda. Sirdaryo tumani ham barqaror o‘sish ko‘rsatkichlariga ega.

<sup>12</sup> Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida tuzildi. <https://sirstat.uz/uz>

<sup>13</sup> Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida tuzildi. <https://sirstat.uz/uz>

### 3-jadval

#### **Sirdaryo viloyati shahar va tumanlarida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi (joriy narxlarda, mlrd so‘m)<sup>14</sup>**

	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1 628,0</b>	<b>2 699,3</b>	<b>5 869,1</b>	<b>7 191,9</b>	<b>8 051,8</b>	<b>12 354,6</b>	<b>15 871,8</b>	10 942,8
Guliston sh.	352,2	586,2	921,1	1 029,1	1 492,9	1 183,1	1 276,0	1 391,4
Shirin sh.	43,9	71,8	685,7	999,7	967,8	307,1	1 957,0	3 422,3
Yangiyer sh.	44,1	95,7	467,5	515,9	232,7	265,7	742,1	749,0
Tumanlar								
Boyovut	77,8	160,9	226,4	254,1	1 735,5	5 642,0	6 597,9	1 687,4
Guliston	113,9	142,6	471,7	518,6	175,9	248,9	306,5	268,9
Mirzaobod	124,3	321,0	324,6	678,6	737,1	589,6	637,7	321,9
Oqoltin	59,1	194,8	229,0	427,2	286,4	275,9	523,0	308,2
Sardoba	203,4	86,9	385,5	441,8	687,4	374,9	765,8	820,2
Sayxunobod	52,0	158,5	371,4	453,8	391,9	235,0	297,5	464,3
Sirdaryo	438,4	604,1	1 275,9	1 349,2	1 143,3	1 417,9	1 788,5	989,1
Xovos	111,3	273,8	503,5	523,8	200,9	1 814,5	979,8	520,1

Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rish mumkinki, hududlardagi asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan: Boyovut tumanida 2021-yildan boshlab investitsiyalar hajmi keskin oshgan. 2020-yilda 254,1 mlrd so‘mdan 2021-yilda 1 735,5 mlrd so‘mga, 2022-yilda esa 5 642,0 mlrd so‘mga ko‘tarilgan. Xovos tumanida 2022-yilda 200,9 mlrd so‘mdan 1 814,5 mlrd so‘mga o‘sgan.

Sirdaryo viloyatining 2017–2024-yillar oralig‘idagi yalpi hududiy mahsuloti (YaHM) tarkibi iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan. Viloyatning YaHM 2017-yildagi 7 615,0 mlrd so‘mdan 2024-yilga kelib 28 003,3 mlrd so‘mga o‘sgan. Bu viloyat iqtisodiyotining tez sur’atlarda rivojlanayotganini ko‘rsatadi(4-jadval).

Tarmoqlar bo‘yicha tahlil qilinadigan bo‘lsa, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi viloyat iqtisodiyotida yetakchi o‘rin egallaydi: 2017-yilda 3 101,9 mlrd so‘mdan 2024-yilga kelib 8 943,7 mlrd so‘mga o‘sgan. YaHMdagi ulushi 2023-yilda taxminan 34,7 %ni tashkil etgan. Sanoat (qurilishni qo‘shtan holda) sohasi ham sezilarli o‘sgan: 2017-yilda 1 896,4 mlrd so‘mdan 2024-yilga kelib 9 576,3 mlrd so‘mni tashkil etgan. Xizmatlar sohasi ham barqaror o‘sishni ko‘rsatgan: 2017-yilda 2 372,9 mlrd so‘mdan 2024-yilga kelib 8 935,2 mlrd so‘mga yetgan.

Sanoat sohasida qurilish alohida ajratib ko‘rsatilgan. Qurilish sohasi 2017-yildagi 410,9 mlrd so‘mdan 2024-yilga kelib 2 084,4 mlrd so‘mga o‘sgan. Bu ko‘rsatkich sohaning ahamiyati oshib borayotganidan dalolat beradi. Xizmatlar sohasida “boshqa xizmat tarmoqlari” eng katta ulushni egallaydi. Savdo, yashash va ovqatlanish xizmatlari hamda tashish, saqlash, axborot va aloqa xizmatlari ham sezilarli o‘sgan.

<sup>14</sup> Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida tuzildi. <http://www.sirstat.uz>

Mahsulotlarga sof soliqlar bo'yicha ko'rsatkich 2017-yildagi 243,8 mlrd so'mdan 2024-yilga kelib 548,1mlrd so'mga yetgan. Bu viloyatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar qiymati oshganini ko'rsatadi.

Sirdaryo viloyati iqtisodiyotida 2017–2024-yillar davomida barqaror va sezilarli o'sish kuzatilgan. Qishloq xo'jaligi yetakchi soha bo'lib qolmoqda, ammo sanoat va xizmatlar sohalarining ahamiyati ham oshib bormoqda. Bu iqtisodiyotning diversifikasiya qilinayotganini ko'rsatadi. Barcha asosiy iqtisodiy faoliyat turlari ijobiliy dinamikani qayd etmoqda. 2024-yilning birinchi choragi ma'lumotlari ham o'sish tendensiyasi davom etayotganini namoyon qilmoqda. Bu viloyatning iqtisodiy salohiyati oshib borayotgani va barqaror rivojlanish yo'lida ekanligini anglatadi.

#### 4-jadval

#### **Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida Sirdaryo viloyati yalpi hududiy mahsuloti hajmi (joriy narxlarda, mlrd so'm)<sup>15</sup>**

	<b>2017 y.</b>	<b>2018 y.</b>	<b>2019 y.</b>	<b>2020 y.</b>	<b>2021 y.</b>	<b>2022 y.</b>	<b>2023 y.</b>	<b>2024 y.</b>
I. YaHM, jami	<b>7 615,0</b>	<b>9 602,2</b>	<b>13 593,4</b>	<b>14 285,1</b>	<b>16 865,1</b>	<b>20 155,6</b>	<b>24 001,7</b>	<b>28 003,3</b>
<i>shu jumladan:</i>								
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	7 371,2	9 151,8	12 795,4	13 904,4	16 434,5	19 559,7	23 509,3	27 455,2
Mahsulotlarga sof soliqlar	243,8	450,4	798,0	380,7	430,6	595,9	492,4	548,1
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	<b>7 371,2</b>	<b>9 151,8</b>	<b>12 795,4</b>	<b>13 904,4</b>	<b>16 434,5</b>	<b>19 559,7</b>	<b>23 509,3</b>	<b>27 455,2</b>
Qishloq, o'rmon va baligchilik xo'jaligi	<b>3 101,9</b>	<b>3 506,1</b>	<b>4 553,9</b>	<b>4 938,3</b>	<b>5 901,6</b>	<b>7 129,3</b>	<b>8 098,1</b>	<b>8 943,7</b>
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	<b>1 896,4</b>	<b>2 712,4</b>	<b>4 412,5</b>	<b>4 725,6</b>	<b>5 485,3</b>	<b>6 246,3</b>	<b>8 067,6</b>	<b>9 576,3</b>
Sanoat	1 485,5	1 981,3	3 044,2	3 238,5	3 879,9	4 542,5	6 129,0	7 491,9
Qurilish	410,9	731,1	1 368,3	1 487,1	1 605,4	1 703,8	1 938,6	2 084,4
Xizmatlar	<b>2 372,9</b>	<b>2 933,3</b>	<b>3 829,0</b>	<b>4 240,5</b>	<b>5 047,6</b>	<b>6 184,1</b>	<b>7 343,6</b>	<b>8 935,2</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	715,0	834,1	1 209,2	1 180,6	1 415,0	1 963,1	2 348,0	2 889,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	357,0	384,1	429,9	480,0	546,7	627,7	738,4	945,4
boshqa xizmat tarmoqlari	1 300,9	1 715,1	2 189,9	2 579,9	3 085,9	3 593,3	4 257,2	5 100,7

Taqdim etilgan jadvallar asosida Sirdaryo viloyatining iqtisodiy rivojlanishi haqida quyidagi umumiy xulosalarni chiqarish mumkin: Sirdaryo viloyati 2017–2024-yillar davomida barqaror va sezilarli iqtisodiy o'sishni namoyish etgan. Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) 2017-yildagi 7 615,0 mlrd so'mdan 2024-yilga kelib 28 003,3 mlrd so'mga o'sgan. O'sish sur'atlari deyarli har yili ijobiliy bo'lib, 2021-yilda eng yuqori 10.2 % o'sishni qayd etgan. 2024-yilda qishloq xo'jaligi YaHMning 39 %i, sanoat 34 %i va xizmatlar sohasi 27%ini tashkil etgan.

<sup>15</sup> Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi. <http://www.sirstat.uz/>

## 5-jadval


### Omillarning korrelyatsiya tahlili natijalari<sup>16</sup>

O'zgaruvchilar	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)
(1) iqtisodiy faktor	1.000				
(2) ijtimoiy faktor	-0.136	1.000			
	(0.176)				
(3) infratuzilma faktor	0.191	-0.037	1.000		
	(0.057)	(0.717)			
(4) investitsion jozibadorlik	0.774*	0.327*	0.345*	1.000	
	(0.000)	(0.001)	(0.000)		
(5) boshqa faktor	-0.170	-0.018	0.000	0.122	1.000
	(0.090)	(0.862)	(0.998)	(0.227)	

\*\*\* p<0.01, \*\* p<0.05, \* p<0.1

Tadqiqot davomida gipotezalarni bat afsil tekshirish natijasida barcha gipotezalar qabul qilindi, bu esa tanlangan iqtisodiy, ijtimoiy, infratuzilma va boshqa ko'rsatkichlarning investitsion jozibadorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Biroq o'zaro bog'liqlik sharoitida qo'shimcha omillarning ta'siri sezilarli darajada kamayishi kuzatildi.

Tahlillar infratuzilmaning hududiy investitsion jozibadorlik bilan ijobiy bog'liqligini ko'rsatib, uning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi muhim rolini tasdiqlaydi. 5-jadvalda ko'rsatilishicha, iqtisodiy ko'rsatkichlar va investitsion jozibadorlik o'rta sida eng yuqori korrelyatsiya mavjud ( $r = 0.774$ ). Iqtisodiy faktoring o'rta cha qiymati va standart og'ishi mos ravishda 0.401 va 0.326, infratuzilma faktorining esa 0.311 va 0.033 ni tashkil etadi.



**2-rasm. Ijtimoiy, iqtisodiy va infratuzilma omillari o'rta sida qilingan issiqlik xaritasi<sup>17</sup>**

2-rasmdagi issiqlik xaritasi (heatmap) uchta o'zgaruvchining o'zaro bog'liqligini vizual tarzda ifodalaydi. Grafikda infratuzilma omili gorizontal o'qda, ijtimoiy omil esa vertikal o'qda tasvirlangan. Har bir kvadrat maydon iqtisodiy omil ko'rsatkichiga qarab ranglanadi. Ranglar shkalasi o'ng tomonda joylashgan bo'lib, eng yuqori iqtisodiy omil ko'rsatkichlari sariq va yashil ranglar bilan ifodalangan, eng past qiymatlar esa to'q binafsha va ko'k ranglarda aks etgan.

<sup>16</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>17</sup> Muallif ishlanmasi.

Xaritada infratuzilma va ijtimoiy omillar o'rtasida kuchli tarqalish kuzatiladi, ya'ni ko'plab nuqtalar markazga yaqin joylashgan bo'lib, iqtisodiy omilning taqsimoti turlicha ekanligi ko'rinish turibdi. Ba'zi joylarda iqtisodiy omil yuqori bo'lsa (sariq rang), ba'zi hududlarda past (to'q binafsha) ekanligi ko'rsatilgan. Bu esa iqtisodiy omilning infratuzilma va ijtimoiy omilga bog'liq holda o'zgarishini anglatadi. Grafikka ko'ra, infratuzilma va ijtimoiy omilning o'zaro ta'siri iqtisodiy omilning shakllanishida muhim rol o'yndi, degan xulosaga kelish mumkin.

6-jadvalda iqtisodiy faktorining o'rtacha qiymati va standart og'ishi mos ravishda 0.401 va 0.326, infratuzilma faktorining esa 0.311 va 0.033 ni tashkil etishi aks etgan. Ba'zi holatlarda hududiy siyosatchilar investitsion rejalashtirishda iqtisodiy ko'rsatkichlarni ustuvor deb hisoblashdi. Biroq manfaatdor tomonlar ijtimoiy ko'rsatkichlar ikkilamchi bo'lishiga qaramay iqtisodiy rivojlanishning to'ldiruvchi ta'sirga ega ekanligini ta'kidlashdi. 5-jadvaldagagi natijalar shuni ko'rsatadi, regressiya tahlili bo'yicha F-test = 223.507, R-kvadrat = 0.904 ( $p < 0.000$ ), ya'ni jami dispersiyaning 90.4 % izohlangan.

#### 6-jadval

#### Investitsion jozibadorlikni oshirish bo'yicha regressiya model natijalari<sup>18</sup>

Investitsion jozibadorlik	Koeffits iyenti	Standart xatolik	t-qiyati	p-qiyati	[95 % Ishonch oralig'i]	Ahamiyat lilik darajasi
infratuzilmavi y faktor	0.201	0.033	6.19	0	0.137 – 0.266	***
ijtimoiy faktor	0.311	0.022	14.14	0	0.267 – 0.354	***
iqtisodiy faktor	0.303	0.012	25.41	0	0.279 – 0.327	***
boshqa faktor	0.252	0.03	8.47	0	0.193 – 0.312	***
Konstant	-0.048	0.031	-1.55	0.124	-0.109 – 0.013	
O'rtacha qiymat (bog'liq o'zgaruvchi)					0.401	
Standart og'ish (bog'liq o'zgaruvchi)					0.326	
R-kvadrat					0.904	
Kuzatuvlar soni					100	
F-testi					223.507	
Prob > F					0.000	
Akaike mezoni (AIC)					-165.555	
Bayes mezoni (BIC)					-152.529	

\*\*\*  $p < .01$ , \*\*  $p < .05$ , \*  $p < .1$

Ushbu natijalar iqtisodiy omillarni eng muhim hissa qo'shuvchilar sifatida aniqlaydi. Respondentlar fikriga ko'ra, infratuzilma rivojlanishi iqtisodiy barqarorlik ta'sirini oshiradi ( $\beta = 0.303$ ,  $p < 0.01$ ), bu esa 1-gipotezani qo'llab-quvvatlaydi. Ijtimoiy omillar esa investitsion jozibadorlikka eng sezilarli ta'sir ko'rsatadi ( $\beta = 0.311$ ,  $p < 0.01$ ) va bu 2-gipotezani tasdiqlaydi.

<sup>18</sup> Muallif ishlanmasi.

Hududning investitsion jozibadorligini baholash strategik ahamiyatga ega bo‘lib, u hududiy rivojlanish va iqtisodiy o‘sishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqotda iqtisodiyot, jamiyat va infratuzilma kabi asosiy omillarni batafsil tahlil qilish orqali mintaqaviy baholashning optimallashtirilgan metodologiyasini ishlab chiqish va dekabr oyiga qadar investitsion jozibadorlikni har tomonlama oshirish ko‘zda tutilgan. Tadqiqotda iqtisodiy (0,303), ijtimoiy (0,311), infratuzilmaviy (0,201) va boshqa (0,252) ko‘rsatkichlarga asoslanib, ularning nisbiy ta’siri va o‘zaro bog‘liqligi aniqlanadi. Empirik tahlil jarayonida regressiya va korrelyatsiya usullaridan foydalanib, ushbu omillarning hududiy investitsion jozibadorlikka og‘irlik koefitsiyentlari asosida qanday ta’sir ko‘rsatishi baholanadi. Ko‘p o‘lchovli tahlil yordamida esa ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi dinamik va o‘zaro ta’sir chuqurroq o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlar eng katta ta’sir kuchiga ega ekanligini ko‘rsatadi hamda infratuzilma va qo‘srimcha omillar bilan kuchli bog‘liqlikni namoyon qiladi. Tadqiqotdan olingan xulosaga ko‘ra, ko‘rsatkichlar og‘irliklarining muvozanatlari taqsimlanishi muhim ahamiyat kasb etadi va moslashtirilgan metodologiyalardan foydalanish optimal hududiy rivojlanishga erishishda katta rol o‘ynaydi.

Umuman olganda, ushbu regressiya modeli investitsion jozibadorlikni baholashda foydali va ishonchli vosita bo‘lib, u asosida hududiy investitsion strategiyalar ishlab chiqish, xususan, Sirdaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy va infratuzilmaviy rivojlanishiga qaratilgan marketing choralarini rejalashtirish mumkin. Model natijalari investitsion siyosatda ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash va ularga yo‘naltirilgan kompleks marketing strategiyalarini ishlab chiqishda muhim nazariy va amaliy asos yaratadi.

Uchinchi bobda **“Marketing strategiyalaridan foydalanish asosida hududlarga investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish va samaradorligini oshirish”** masalasi ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida Sirdaryo viloyatiga investitsiya jalb etilishi ko‘rsatkichi past darajada ekanligi aniqlandi. So‘rovlar va intervular natijasida mintaqaviy marketingda muvofiqlik yetishmasligi va moslashgan brendlash strategiyasi yo‘qligi kuzatildi. Bu esa investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan sa’y-harakatlarning kutilganidan past darajada samarali bo‘lishiga olib keldi (6-jadval).

Tadqiqot brending strategiyalari investitsiyaga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi haqidagi gipotezani qo‘llab-quvvatlaydi va raqamlı marketing samaradorligi ushbu gipotezaning ta’sirini kuchaytirishini tasdiqlaydi. Tadqiqot xulosalariga ko‘ra, mintaqaviy investitsiya istagi raqamlı vositalar va brendlash harakatlarini birlashtirgan integratsiyalashgan marketing strategiyalari orqali shakllanadi.

Bu shuni anglatadiki, integratsiyalashgan marketing yondashuvi foydalanilmagan joylarni yanada jozibador qiladi. Regressiya tahlili eng samarali marketing elementlari va shunga mos keladigan strategiyalarni aniqlashda muhim rol o‘ynashi mumkin. Ushbu tadqiqot natijalari investorlarning xatti-harakatlarini yaxshiroq tushunish uchun mintaqaviy rivojlanish harakatlariga yana bir bor ta’sir ko‘rsatadi. Brendlash strategiyasi hududni o‘ziga xos va raqobatbardosh investitsiya manzili sifatida joylashtirish orqali qo‘srimcha funksiyalar taqdim etadi. Raqamlı marketingning investitsiya xohishlariga ta’siri yuqori bo‘lib, barcha investor

kategoriyalari bo‘yicha statistik jihatdan ahamiyatlidir. Raqamli va an’anaviy marketing harakatlarini birlashtirish nafaqat hududiy raqobatbardoshlikni oshiradi, balki uzoq muddatli investitsiya munosabatlarini rivojlantiradi.

Bir qarashda bizning topilmalarimiz rivojlanmagan hududlarda an’anaviy media strategiyalarining samaradorligi pastligini ta’kidlagan olimlar xulosalariga ziddek tuyulishi mumkin. Biroq natijalar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy media raqamli marketingga nisbatan kamroq ta’sir ko‘rsatsa-da, brendlash xabarlarini mustahkamlashda muhim yordamchi rol o‘ynaydi. Bu esa uni zamonaviy strategiyalarda ahamiyatsiz deb hisoblovchi oldingi farazlarga zid keladi.

7-jadvalda Sirdaryo viloyatida investitsiya imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha marketing strategiyasiga ko‘ra, afzal ko‘rish balli (AKB), samaradorlik reytingi (SR), hududlar strategiyasini qabul qilish (HSQ) jihatdan “raqamli marketing” (85; 4,5; 90), “brendlash” (78; 4,2; 80), “manfaatdor tomonlarning ishtiroti” (75; 4,0; 70), “an’anaviy ommaviy axborot vositalari” (60; 3,5; 50) qiymatlariga muvofiq keluvchi investorlarning afzallikkleri asoslangan.

**7-jadval**

**Tadqiqotda foydalanilgan ma’lumotlar to‘plamining bir qismi<sup>19</sup>**

Marketing strategiyasi	Raqamli marketing	Brending	Manfaatdor tomonlar	An’anaviy media
<b>Baholash mezoni</b>				
Afzal ko‘rish bali	85	78	75	60
Samaradorlik reytingi	4.5	4.2	4	3.5
Strategiyani qabul qilish ballari	90	80	70	50

Bu ilmiy yangilik viloyatning raqamli transformatsiyasiga turtki berishi, marketing jarayonlarini optimizatsiya qilishi va xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini oshirishi mumkin. Shu bilan birga, bu tajriba keyinchalik O‘zbekistonning boshqa hududlari uchun ham namuna bo‘lib xizmat qilishi, mamlakatning umumiyligi investitsion imijini yaxshilash va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga hissa qo‘sishi mumkin.

Strategiyani amalga oshirish natijasida viloyatga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi oshishi, yangi ish o‘rnlari yaratilishi, eksport hajmi ko‘payishi va viloyatning xalqaro reytinglardagi o‘rni yaxshilanishi kutilmoqda. Bu yondashuv nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, ekologik va madaniy sohalarga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Strategiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi Sirdaryo viloyatini innovatsion rivojlanish yo‘liga olib chiqadi va pirovard natijada aholining turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

Ishlab chiqilgan marketing strategiyasi Sirdaryo viloyatining investitsion salohiyatini to‘liq ochib berish va uning raqobatbardoshligini oshirishda muhim vosita bo‘ladi. Bu tajriba O‘zbekistonning boshqa hududlari uchun ham namuna bo‘lib, mamlakatning yalpi investitsion jozibadorligini oshirishga hissa qo‘sishi mumkin. Jumladan, marketing strategiyalaridan foydalanish Sirdaryo viloyatining investitsion

<sup>19</sup> Muallif ishlanmasi.

jozibadorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Taklif etilgan marketing strategiyasini amalga oshirish natijasida viloyatga kiritilayotgan investitsiyalar hajmini 2025-yilga kelib 30–35 %ga oshirish mumkin.

Sirdaryo viloyati uchun investitsiya oqimlarini 2027-yilgacha ARIMA modeli asosida prognoz qilish jadvali tuzilib, unda kutilayotgan investitsiya miqdorlari va yillik o'sish ko'rsatkichlari keltirilgan.

**8-jadval**  
**ARIMA regressiya natijalari<sup>20</sup>**

O'zgaruvchi	Koef.	Standart xatolik	t-qiymati	p-qiymati	[95 % ishonch oralig'i]	Ahamiyatlilik darjası
O'zgarmas	-0.14	4.017	-0.03	0.972	-8.012 – 7.733	
Kechikish	0.073	0.079	0.92	0.358	-0.082 – 0.228	
O'zgarmas	49.321	2.747	17.96	0.000	43.937 – 54.705	***

ARIMA regressiya natijalari 8-jadvalda keltirilgan bo'lib, ular Sirdaryo viloyati uchun investitsiya oqimini prognoz qilish modeliga oid tushunchalarni taqdim etadi. Jadvalda asosiy o'zgaruvchilar qatoriga doimiy (konstant) a'zo, kechikish (L) a'zosi hamda turli koeffitsiyentlar, standart xatoliklar, t-qiyatlar, p-qiyatlar va ishonch intervali bilan berilgan yana bir doimiy a'zo kiradi.

Birinchi doimiy a'zo koeffitsiyenti -0.14 bo'lib, uning standart xatoligi 4.017 ga teng. Uning t-qiymati -0.03 va p-qiymati 0.972 bo'lib, bu uning statistik jihatdan ahamiyatsiz ekanligini ko'rsatadi. Ishonch intervali -8.012 dan 7.733 gacha bo'lib, baholash natijasining yuqori noaniqligini bildiradi hamda modelga sezilarli hissa qo'shmasligini anglatadi.

Kechikish (L) a'zosi 0.073 koeffitsiyent va 0.079 standart xatolikka ega. Uning t-qiymati 0.92, p-qiymati esa 0.358 bo'lib, bu model doirasida o'tgan davr investitsiya oqimlari kelajakdagi investitsiya tendensiyalariga sezilarli ta'sir ko'rsatmasligini bildiradi. Ushbu a'zo uchun ishonch intervali -0.082 dan 0.228 gacha bo'lib, uning statistik ahamiyatsizligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Jadvaldagagi ikkinchi doimiy a'zo esa juda ahamiyatli bo'lib, uning koeffitsiyenti 49.321, standart xatoligi 2.747 va t-qiymati 17.96 ga teng. P-qiymati 0.000 bo'lib, uning kuchli ta'sirini tasdiqlaydi. Ishonch intervali 43.937 dan 54.705 gacha bo'lib, natijaning barqaror va ishonchli ekanligini ko'rsatadi. Ushbu natija shuni anglatadiki, kelajakdagi investitsiya oqimlariga ta'sir qiluvchi asosiy omillar o'tgan investitsiya ma'lumotlaridan ko'ra iqtisodiy sharoitlarning o'zi hisoblanadi.

Qo'shimcha model statistikalariga ko'ra, bog'liq o'zgaruvchining o'rtacha qiymati -0.187, standart og'ishi esa 49.589 ni tashkil etadi. Model 176 ta kuzatuvga asoslangan bo'lib, bu iqtisodiy tahlil uchun yetarlicha ishonchli ma'lumotlar to'plami ekanligini bildiradi. Chi-kvadrat statistikasi 0.845 bo'lib, modelda jiddiy spetsifikatsiya xatolari yo'qligini ko'rsatadi. Akaike axborot kriteriy (AIC) 1877.680 sifatida qayd etilgan bo'lib, modelni yanada optimallashtirish imkoniyati mavjudligini anglatadi.

<sup>20</sup> Muallif ishlanmasi.

## 9-jadval

**Sirdaryo viloyatining investitsion jozibadorligini oshirishning asosiy omillari  
o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ifodalovchi ekonometrik model asosida jalgan  
etilayotgan investitsiya hajmining 2027-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari<sup>21</sup>**

Yillar	Prognoz qilinayotgan investitsiya oqimi, mlrd so‘m	O‘sish (%)
2024	10942.8	-31.05
2025	21487.4	96.36
2026	24521.65	14.12
2027	27555.9	12.37

Ushbu tadqiqotda vaqt seriyasi asosida prognozlash mintaqaviy investitsiya siyosatini baholashda samarali vosita ekanligi va ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarning qo‘silishi gipoteza ta’sirini oshirishi tasdiqlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadi, bashoratli modellashtirish yondashuvlari strategik investitsiyalarni rejalashtirish va barqaror mintaqaviy rivojlanish uchun muhimdir. Investitsiya oqimlariga infratuzilmani rivojlantirish va siyosiy rag‘batlantirish choralarining sezilarli ta’siri mavjud.

9-jadvalga muvofiq, ma’lumotlar 2024-yildan 2027-yilgacha bo‘lgan umumiyligi investitsiyalar hajmi va ularning yillik o‘sish foizi tendensiyasini aks ettiradi. Biroq 2024-yilda investitsiyalar keskin kamayib, 31.06 % pasayishi natijasida jami hajmi 10,942.8 ga tushdi. 2025-yilda esa kuchli tiklanish kuzatilib, 96.36 % o‘sish bilan investitsiyalar 21,487.4 ga ko‘tarildi. 2026-yilda esa o‘sish nisbatan sustroq bo‘lsa-da, barqaror bo‘lib, 14.12 %ni tashkil etdi va investitsiyalar 24,521.65 ga yetdi. 2027-yilga kelib, investitsiyalar yanada oshib, 27,555.9 ga yetdi, bu esa 12.37 % o‘sishni ifodalaydi. Umuman olganda, bu davr investitsiyalar hajmidagi o‘zgaruvchanlik, xususan, 2024-yildagi sezilarli pasayish va undan keyingi kuchli tiklanishlar bilan ajralib turadi.

Prognoz modellashtirish sektoral tendensiyalarni aniqlash va uzoq muddatli ta’sirlarni prognoz qilish orqali qo‘srimcha funksiyalar taqdim etadi. Infratuzilma investitsiyalarining hududiy jozibadorlikka ta’sir qilish darajasi yuqori va Sirdaryo viloyatida statistik jihatdan sezilarli ekanligi aniqlandi. Dynamic Ordinary Least Squares (DOLS) nafaqat aniq prognozlashni ta’minlaydi, balki mustahkam qaror qabul qilish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Dastlabki natijalarimiz o‘xshash sharoitlarda prognozlash modellarining cheklangan samaradorligini qayd etgan tadqiqotchilar xulosalaridan ma’lum darajada farq qiladi. Biroq olingan natijalar shuni ko‘rsatadi, maxsus hududlarga moslashtirilgan adaptiv modellar umumiyligi prognozlash usullariga nisbatan sezilarli darajada yuqori samaradorlikka ega.

Ushbu tadqiqot tahliliga tashqi omillar yoki kuzatilmagan o‘zgaruvchilar kiritilmagan bo‘lib, bu holat iqtisodiy tendensiyalarning talqiniga ta’sir qilishi mumkin. Shunga qaramay, tadqiqot natijalari hududiy o‘sishni rivojlantirishda maqsadli investitsiya strategiyalari muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatmoqda.

Strategiyani amalga oshirish natijasida mintaqada investitsiyalar hajmi oshishi, yangi ish o‘rnlari yaratilishi, eksport hajmi ortishi va xalqaro reytingdagagi mavqeyi

<sup>21</sup> Muallif ishlanmasi.

yaxshilanishi kutilmoqda. Ushbu yondashuv nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, ekologik va madaniy sohalarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Strategiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi Sirdaryo viloyatini innovatsion rivojlanishga yo'naltirishga xizmat qilib, pirovardida aholi turmush darajasini oshirishga zamin yaratadi.

## XULOSA

Marketing strategiyalaridan foydalanish asosida investitsion jozibadorlikni oshirishga (Sirdaryo viloyati misolida) doir olib borilgan mazkur tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Investitsion jozibadorlikni oshirishda marketing strategiyalarining tutgan o'rni chuqur ilmiy asoslab berildi. Marketing faoliyatining investitsion qarorlar qabul qilish jarayoniga ko'rsatadigan ta'siri ekonometrik modellar yordamida tahlil qilindi va empirik jihatdan tasdiqlandi. Strategik yondashuvlar samaradorligini baholash uchun kompleks tahlil metodikasi ishlab chiqildi. Ushbu metodika asosida marketing strategiyasini takomillashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar belgilandi va ularning hududiy investitsion siyosatdagi amaliy qo'llanish imkoniyatlari asoslandi.

2. Hududlarning investitsion salohiyatini baholash bo'yicha ilmiy yondashuvlar takomillashtirildi. Tadqiqot davomida iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy ko'rsatkichlarning nisbiy ahamiyati chuqur tahlil qilindi. Baholash mezonlari tizimi ishlab chiqilib, ularning o'zaro bog'liqligi aniqlandi. Natijada ko'p o'lchovli tahlil asosida hududning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiluvchi ustuvor yo'nalishlar belgilandi.

3. Viloyatning investitsion muhitini rivojlantirishda zamonaviy marketing texnologiyalarining ahamiyati asoslandi. Raqamlı marketing vositalaridan foydalanish orqali investorlar bilan muloqotni kuchaytirish mexanizmlari taklif etildi. Internet-platformalar va ijtimoiy tarmoqlarning samarali integratsiyasi ta'minlandi. Marketing kommunikatsiyalarining innovatsion shakllari joriy etildi.

4. Marketing strategiyasini amalga oshirishda institutsional mexanizmlar takomillashtirildi hamda ularning funksional samaradorligi oshirildi. Tadqiqot doirasida manfaatdor tomonlar o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini mustahkamlash va muvofiqlashtirish yo'llari asoslab berildi.

5. Marketing-miks elementlarining muvozanatli konfiguratsiyasi orqali hududga nisbatan investorlarda ijobiy imij shakllantirish, investitsion takliflar raqobatbardoshligini oshirish va ularga bo'lgan qiziqishni faollashtirish imkoniyati yaratildi. Ushbu yondashuvlar asosida marketing vositalaridan foydalanishning tizimli mexanizmlari joriy etilib, ularning natijalari amaliy jihatdan asoslandi.

6. Viloyatning investitsion salohiyatini baholash maqsadida kompleks ekonometrik model ishlab chiqildi. Ushbu model yordamida investitsion jozibadorlikka ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar aniqlanib, ularning iqtisodiy tizimdagi roliga empirik baho berildi. Korrelyatsion va regressiya tahlillari asosida omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar aniqlanib, ularning nisbiy ta'sir kuchi statistik asosda belgilandi. Shuningdek, prognoz ko'rsatkichlarining ishonchliligi va barqarorligini baholash uchun statistik verifikatsiya (tekshirish) jarayoni amalga oshirildi. Natijada viloyat darajasida investitsion siyosatni shakllantirishda foydalanilishi mumkin bo'lgan aniq va ilmiy asoslangan tahliliy vosita yaratildi.

7. Marketing strategiyasining innovatsion komponentlari takomillashtirilib, raqamli texnologiyalarning strategik ahamiyati chuqr asoslandi. Zamонавиу texnologik yechimlar (sun'iy intellekt, big data, targetli reklama va raqamli analitika vositalari) marketing jarayonlariga samarali integratsiya qilindi. Bu esa marketing faoliyatining natijadorligi, tezkorligi va moslashuvchanligini sezilarli darajada oshirish imkonini berdi.

8. Tadqiqot doirasida viloyat darajasida investitsion jozibadorlikka ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, ijtimoiy, infratuzilma va boshqa omillar regressiya modeli asosida tahlil qilindi. Natijada ijtimoiy va iqtisodiy omillar eng muhim determinantlar sifatida aniqlandi. Baholash indikatorlari tizimi ishlab chiqilib, ularning o'zaro bog'liqligi va sinergik samarasini isbotlandi.

9. Ilmiy tadqiqotlar natijasida investitsion jozibadorlikni oshirish bo'yicha kompleks yondashuv ishlab chiqildi. Marketing strategiyasining tarkibiy elementlari o'rtasida mavjud sinergik ta'sir aniqlanib, ularni uyg'unlashtirish orqali yuqori samaradorlikka erishish imkoniyati ko'rsatib berildi. Uzoq muddatli va barqaror hududiy rivojlanishni ta'minlash uchun institutsional, innovatsion va kommunikatsion yondashuvlar uyg'unligida harakat qilish zarurligi asoslandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2020.I.16.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**  
**ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ РЕНЕССАНС**

---

**ХОЛМУРОТОВА ДИЁРАХОН ИБРАГИМОВНА**

**ПОВЫШЕНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ НА  
ОСНОВЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ  
(НА ПРИМЕРЕ СЫРДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)**

**08.00.11 – Маркетинг**

**АВТОРЕФЕРАТ**  
**диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией (регистрационный номер В2024.1.PhD/Iqt3868).

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) и информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:** Зуфарова Нозима Гуламиддиновна,  
доктор экономических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Касимова Фатима Тулкуновна,  
доктор экономических наук, профессор

Мамуров Самад Эгамназарович,  
доктор философии по экономическим наукам

**Ведущая организация:** Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Защита диссертации состоится «09 09 2025 г. в 14:00 часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2020.1.16.02 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100003, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72; Факс: (99871) 239-43-51; e-mail: [tdiu@tdiu.uz](mailto:tdiu@tdiu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в библиотеке Ташкентского государственного экономического университета (регистрационный №1744 (Адрес: 100003, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72; Факс: (99871) 239-43-51; e-mail: [tdiu@tdiu.uz](mailto:tdiu@tdiu.uz)).

Автореферат диссертации разослан «06 08 2025 года.  
(протокол реестра №37 от «7 08 2025 года).



Г.К. Абдурахманова  
Председатель научного совета по  
присуждению ученых степеней д.э.н.,  
профессор

О. Д. Джурабаев  
Заместитель секретарь научного совета по  
присуждению ученых степеней, д.э.н.,  
профессор

Ш.А. Аллаяров  
Председатель научного семинара при  
научном совете по присуждению  
ученых степеней, д.э.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы исследования.** Углубление глобализационных процессов в мировой экономике приводит к расширению экономических связей и активизации международных потоков капитала между странами. В частности, «объем прямых иностранных инвестиций начал восстанавливаться после пандемии COVID-19. По данным Конференции ООН по торговле и развитию (ЮНКТАД), глобальные прямые иностранные инвестиции в 2022 году составили 1,3 трлн долларов США»<sup>22</sup>. В то же время, начиная с 2023 года, мировая экономика сталкивается с рядом проблем. В частности, глобальная инфляция, рост цен на энергоносители, геополитические конфликты и сбои в цепочках поставок оказывают негативное влияние на инвестиционную среду. Это, в свою очередь, делает еще более актуальной необходимость повышения конкурентоспособности стран и регионов в привлечении иностранных инвестиций.

В условиях усиления глобальной интеграции в мире ведутся научные исследования по проблемам эффективного использования маркетинговых стратегий для повышения инвестиционной привлекательности регионов. Оценка инвестиционного потенциала регионов и стран, разработка целевых маркетинговых стратегий для промышленных и экономических отраслей, совершенствование стратегий национальных брендов, развитие промышленных кластеров и особых экономических зон, оценка конкурентных преимуществ на региональном и национальном уровнях, разработка стратегий сегментации рынка и ориентации на целевую аудиторию, продвижение инвестиционных моделей, поддерживающих цели устойчивого развития, долгосрочное прогнозирование инвестиционных и маркетинговых трендов, создание удобных информационных площадок для инвесторов являются приоритетными направлениями научных исследований, проводимых в этой области.

В процессе модернизации и диверсификации экономики Узбекистана привлечение инвестиций становится все более актуальным. Повышение инвестиционной привлекательности нашей страны и реализация эффективных маркетинговых стратегий тесно связаны с рядом ключевых факторов. Растущая конкуренция на мировом инвестиционном рынке подталкивает Узбекистан к активному и эффективному продвижению своих инвестиционных возможностей на международном уровне. Для сокращения различий в уровне экономического развития регионов необходимо определить и целенаправленно продвигать конкретный инвестиционный потенциал каждого региона. Развитие цифровых технологий и интернет-маркетинга создает новые, инновационные возможности для общения с инвесторами. Эффективная реализация поставленных задач в данном направлении требует разработки методов реализации маркетинговой стратегии по повышению инвестиционной привлекательности регионов, выявлению и эффективному продвижению региональных конкурентных преимуществ среди потенциальных инвесторов, разработки комплексной

---

<sup>22</sup> UNCTAD. World Investment Report 2023. New York and Geneva: United Nations, 2023, p.1-8.

методологии оценки инвестиционной среды региона с учетом экономических, социальных, инфраструктурных и других показателей, разработки и эффективного использования маркетинговой стратегии, включающей комплексные мероприятия по предложению инновационных методов расширения инвестиционных возможностей за счет интернет-маркетинга, позволяющего использование современных цифровых технологий и социальных сетей, формированию инвестиционного имиджа и бренда региона, определению целевых сегментов инвесторов, разработке и продвижению инвестиционных предложений. Это определяет актуальность темы.

Данная диссертационная работа в определенной мере служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан №УП-111 от 21 июля 2023 года «О мерах по эффективной организации государственного управления в сфере инвестиций, промышленности и торговли в рамках административных реформ», №УП-215 от 7 сентября 2022 года «О мерах по совершенствованию деятельности Фонда прямых инвестиций Республики Узбекистан», в постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-303 от 27 августа 2024 года «О создании Национального инвестиционного фонда Республики Узбекистан», № ПП-459 от 28 декабря 2022 года «О мерах по реализации инвестиционной программы Республики Узбекистан на 2023-2025 годы», № ПП-332 от 25 июля 2022 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию порядка проведения экспертизы предпроектной документации инвестиционных и инфраструктурных проектов, закупочной документации по тендеру, технического задания на государственную закупку и договоров», № ПП-72 от 30 декабря 2021 года “Об утверждении инвестиционной программы Республики Узбекистан на 2022 - 2026 годы и внедрении новых подходов и механизмов по управлению инвестиционными проектами”, №ПП-5233 от 25 августа 2021 года «О мерах по обеспечению инвестиционных проектов внешней инфраструктурой», в постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан №16 от 14 января 2023 года “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы формирования инвестиционной программы Республики Узбекистан и повышению ее эффективности”, №606 от 15 октября 2022 года «О дополнительных мерах по ускорению инновационной и инвестиционной деятельности в регионах республики», №206 от 21 апреля 2022 года «О дополнительных мерах по формированию программ развития социальной и производственной инфраструктуры и совершенствованию системы управления государственными инвестициями», №592 от 21 сентября 2021 года «Об утверждении Административного регламента отбора наилучшего предложения для реализации крупного инвестиционного проекта» и других нормативно-правовых актах.

